



Linguopragmatic characteristics of logistics terminology and its functional-semantic analysis in interlingual communication

Akhmadbek BOZORBEOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5

September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October

2025

Keywords:

linguopragmatics,
logistics terminology,
semantic analysis,
paradigmatic relationships,
corpus linguistics,
translation challenges,
digital transformation.

ABSTRACT

This article analyzes the linguopragmatic features of modern logistics terminology and the mechanisms of their usage in Uzbek, English, and Russian languages. The research examines the paradigmatic and syntagmatic relationships of terms, their semantic differentiation, and transformation processes in various cultural contexts using corpus linguistics methods.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp240-245>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Logistika terminlarining lingvopragmatik xususiyatlari va tillararo muloqotdagi funksional-semantik tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

lingvopragmatika,
logistika terminlari,
semantik tahlil,
paradigmatik munosabatlar,
korpus lingvistikasi,
tarjima muammolari,
raqamli transformatsiya.

Maqolada zamonaviy logistika terminlarining lingvopragmatik xususiyatlari va ularning o'zbek, ingliz, rus tillarida qo'llanilish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot terminlarning paradigmatic va syntagmatic aloqalari, semantik differensiallashuvlari hamda turli madaniy kontekstlardagi transformatsiya jarayonlarini korpus lingvistikasi usullari bilan o'rganadi.

¹ Andijan State Institute of Foreign Languages.
E-mail: abozorbekov@gmail.com

Лингвопрагматические особенности логистических терминов и их функционально-семантический анализ в межъязыковой коммуникации

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

лингвопрагматика,
логистические термины,
семантический анализ,
парадигматические
отношения,
корпусная лингвистика,
проблемы перевода,
цифровая трансформация.

В статье анализируются лингвопрагматические особенности современных логистических терминов и механизмы их употребления в узбекском, английском и русском языках. Исследование рассматривает парадигматические и синтагматические связи терминов, их семантическую дифференциацию, а также процессы трансформации в различных культурных контекстах с применением методов корпусной лингвистики.

Zamonaviy logistika sohasining jadal rivojlanishi va globallashuvi terminlarning nafaqat semantik, balki pragmatik xususiyatlarini ham chuqur o'rganishni talab etadi. Lingvopragmatika tilshunoslikning shunday sohasi bo'lib, u so'zlarning ma'nosi bilan birga, ularning real nutqda qanday ta'sir ko'rsatishi, qanday maqsadlarda ishlatilishi va qanday natijalar berishini ham o'rganadi.

Logistika terminlari bu jihatdan alohida qiziqish uyg'otadi, chunki ular nafaqat tushunchalarni ifodalaydi, balki biznes jarayonlarini, huquqiy majburiyatlarni va moliyaviy operatsiyalarni ham belgilaydi. J. Austin tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi logistika terminlarini o'rganishda muhim nazariy asos yaratadi [1]. Masalan, *FOB (Free On Board)* terminini xalqaro shartnomaga yozish nafaqat ma'lumot beradi, balki sotuvchi va xaridorning aniq majburiyatlarini belgilaydi, risklarni taqsimlaydi va to'lov shartlarini aniqlaydi.

Logistika terminlarining paradigmatic xususiyatlari ularning tizim ichidagi o'zaro munosabatlarini ko'rsatadi. Sinonimik munosabatlar:

Freight, cargo va shipment terminlari misolida sinonimik farqlar aniq ko'rinadi. Uchala termin ham yuk ma'nosini anglatadi, ularning qo'llanish kontekstlari sezilarli darajada farq qiladi:

- *Freight* – ko'proq tashish xizmati va transport xarajatlari bilan bog'liq, iqtisodiy konnotatsiyasi kuchli

- *Cargo* – yukning o'zi, moddiy obyekt sifatida, sug'urta hujjatlari va inventarizatsiyada qo'llaniladi

- *Shipment* – bitta transport vositasida tashiladigan yuklar to'plami, logistika rejalashtirish jarayonlarida ishlatiladi

Bu farqlar amaliy logistikada juda muhim, chunki xato termindan foydalanish moliyaviy va huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Inbound va outbound terminlari asosiy antonimik juft hisoblanadi. *Inbound* korxona yoki omborga kiruvchi yuklar oqimini, *outbound* esa chiquvchi yuklar oqimini bildiradi. O'zbek tilida ular "kiruvchi va chiquvchi oqimlar" tarzida tarjima qilinadi, biroq amaliyotda ko'pincha inglizcha variantlar ham qo'llaniladi.

Upstream va downstream terminlari ta'minot zanjirining turli yo'nalishlarini bildiradi. *Upstream* ta'minot zanjirining yuqori bo'g'inlarini (xomashyo ta'minotchilari

va ishlab chiqaruvchilar), downstream esa pastki bo'g'inlarini (distributorlar va yakuniy iste'molchilar) anglatadi [2].

Transport atamasi barcha transport turlarining umumiy nomi bo'lib, uning ostidagi giponimlarga *road transport*, *rail transport*, *air transport*, *maritime transport* kiradi. Har bir transport turi o'zining maxsus terminologiyasiga ega. Masalan, dengiz transportida *vessel*, *port*, *berth*, *anchorage* terminlari ishlatilsa, havo transportida *aircraft*, *airport*, *cargo terminal*, *air waybill* qo'llaniladi.

Sintagmatik aloqalar

Sintagmatik aloqalar terminlarning gapda birgalikda qo'llanilishini ko'rsatadi. *Supply chain management* (ta'minot zanjiri boshqaruvi) atamasi uchta komponentdan tashkil topgan bo'lib, har bir komponent maxsus ma'no yuklaydi. Christopher Martinning ta'rifiga ko'ra, bu xomashyoni xarid qilishdan tortib yakuniy mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni integratsiyalashgan holda boshqarish sohasi hisoblanadi [3].

Last mile delivery (oxirgi milya yetkazib berish) atamasi logistikaning eng qiyin va qimmat bosqichini ifodalaydi. UPS kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi milya yetkazib berish umumiy logistika xarajatlarining 53 foizini tashkil etadi.

Cross-docking atamasi yuklarni omborga saqlamasdan, bevosita bir transport vositasidan ikkinchisiga o'tkazish jarayonini ifodalaydi. Bu termin Walmart kabi yirik chakana savdo kompaniyalari tomonidan mashhur bo'lgan. *Just-in-time delivery* (o'z vaqtida yetkazib berish) termini Yaponiyaning Toyota kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish falsafasidan kelib chiqqan va e-commerce kontekstida Amazon kabi kompaniyalar tomonidan keng qo'llaniladi.

Rodrigue va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, *warehouse* va *distribution center* o'rtasidagi farq nafaqat funksional, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim [8]. *Distribution center* tovar aylanish tezligi *warehouse* ga nisbatan 3-5 barobar yuqori bo'ladi.

3PL (Third-party logistics) va *4PL (Fourth-party logistics)* o'rtasidagi farq ham semantic differensiallashuv misolidir:

- *3PL* – tashqi logistika xizmat ko'rsatuvchisi, aniq operatsion xizmatlarni (tashish, ombor, bojxona rasmiylashtiruv) taqdim etadi.

- *4PL* – butun ta'minot zanjirini boshqarish va strategik rejalashtirish xizmatlarini taklif qiladi, boshqa 3PL provayderlar bilan ham hamkorlik qiladi.

Accenture kompaniyasi tomonidan kiritilgan 4PL kontseptsiyasi hozirda DHL Supply Chain, Kuehne+Nagel kabi yirik kompaniyalar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Hub va *spoke* terminlari transport geografiyasida muhim o'rin tutadi. *Hub* markaziy transport tuguni bo'lib, *spoke* esa undan tarqaladigan yo'nalishlardir. FedEx kompaniyasining Memphis shahridagi *hub* dunyodagi eng yirik yuk aviatsiya markazilaridan biridir. O'zbek tilida *hub* ko'pincha "logistika markazi" deb tarjima qilinadi, lekin terminning geografik va strategik ma'nosi to'liq ifodalanmaydi.

Intermodal va *multimodal* terminlari o'rtasidagi farq ham lingvistik jihatdan muhim. Ikkalasi ham bir nechta transport turlaridan foydalanishni anglatadi, lekin:

- *Intermodal* – yuk konteynerda saqlanib, har xil transport vositalarida o'zgarishsiz tashiladi

- *Multimodal* – yuk turli shaklda qayta yuklanishi mumkin

European Commission ma'lumotlariga ko'ra, intermodal transport CO₂ chiqindilarini 50-80 foizgacha kamaytiradi.

Korpus lingvistikasi usullari logistika terminlarining real qo'llanilishini o'rganishda katta imkoniyatlar beradi [10].

British National Corpus (BNC) ma'lumotlari asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, *just-in-time (JIT)* atamasi korpusda ko'pincha "manufacturing", "production", "inventory" kabi so'zlar bilan birgalikda uchraydi.

Google Books Ngram Viewer ma'lumotlari *supply chain* terminining qo'llanish chastotasi 1980-yildan 2020-yilgacha 15 barobar oshganini ko'rsatadi. Korpus tahlili shuni ham ko'rsatadiki, *logistics* termini o'zi 1960-yillargacha asosan harbiy kontekstda qo'llanilgan, 1970-yillardan boshlab esa korporativ boshqaruv va ta'minot zanjiri kontekstlarida keng tarqala boshlagan.

Real nutq namunalarini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, logistika mutaxassislari ko'pincha terminlarni qisqartirishga moyil: *Bill of Lading* o'rniga *B/L*, *Letter of Credit* o'rniga *L/C*, *Estimated Time of Arrival* o'rniga *ETA* ishlatiladi. Bu lisoniy tejamkorlik printsipligiga asoslanadi va professional nutqning xususiyatidir.

Pragmatik kontekstda logistika terminlari turli vazifalarni bajaradi [9]: *Informativ funksiya*

Estimated Time of Arrival (ETA) atamasi yukning taxminiy yetib kelish vaqti haqida axborot beradi. *Real Time Location System (RTLS)* esa yukni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi va logistika zanjirining shaffofligini ta'minlaydi.

FOB (Free On Board) Incoterms sharti sotuvchi va xaridorning aniq majburiyatlarini belgilaydi:

- Sotuvchi: yukni kema bortigacha yetkazish, eksport bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish

- Xaridor: fraxt to'lash, dengiz sug'urtasini rasmiylashtirish va import bojxona protseduralarini bajarish

CIF (Cost Insurance and Freight) sharti esa sotuvchining majburiyatlarini kengaytiradi va unga fraxt hamda sug'urta xarajatlarini ham yuklab qo'yadi [4].

Service Level Agreement (SLA) atamasi xizmat ko'rsatish darajasi haqidagi rasmiy majburiyatni bildiradi. DHL

Express kompaniyasi o'zining Time Definite International (TDI) xizmatida 99.7 foiz aniqlik kafolatini beradi. *Lead Time* atamasi ham kommissiv funksiyani bajaradi, chunki u buyurtma berish va qabul qilish o'rtasidagi vaqt oralig'ini kafolatlaydi.

Premium delivery, express service, overnight delivery kabi terminlar tezlik va sifat haqidagi ijobiy baholashni ifodalaydi. *White glove service* termini maxsus parvarish va ehtiyotkorlik bilan yetkazib berishni anglatadi va qimmatbaho yuklar uchun qo'llaniladi. *Green logistics, sustainable supply chain* kabi terminlar ekologik mas'uliyat va ijtimoiy baholashlarni ifodalaydi.

Tarjima muammolari logistika sohasida ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi, chunki noto'g'ri tarjima moliyaviy yo'qotishlar va huquqiy nizolarga olib kelishi mumkin. *Force majeure* atamasi frantsuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, oldin ko'rilmagan holatlar ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida bu "fors-major" yoki "majburiy holat" tarzida ishlatiladi. COVID-19 pandemiyasi davrida *force majeure* terminining qo'llanilishi keskin oshgan.

Demurrage va *detention* terminlari orasidagi farq ham tarjimada ko'pincha yo'qoladi:

- *Demurrage* – kema yoki konteyner keltirilgan muddat ichida yuklanmasa yoki tushirilmasa to'lanadigan to'lov

- *Detention* – konteyner portdan olib ketilganidan keyin vaqtida qaytarilmasa to'lanadigan jarima

Lloyd's List ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda jahon bo'yicha demurrage va detention to'lovlari 22 milliard dollarga yetgan.

General Average atamasi dengiz logistikasida muhim o'rin tutadi. Bu termin kemandir va yukning umumiy xavfsizligi uchun qilingan qurbon uchun barcha manfaatdor tomonlar tomonidan proporsional ravishda to'lanadigan zararni anglatadi. *York-Antwerp Rules* xalqaro dengiz savdosida general average holatlarini tartibga soluvchi qoidalar majmui bo'lib, 1890-yildan beri qo'llaniladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar logistikaga yangi terminlarni olib keldi.

Internet of Things (IoT) texnologiyasi logistika zanjirida sensorlar va aqlli qurilmalar tarmoqini yaratadi. Bu termin Kevin Ashton tomonidan 1999-yilda kiritilgan. *Smart sensors* (aqlli sensorlar) harorat, namlik, tebranish, GPS koordinatalarini real vaqtda uzatadi. Cisco kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib 75 milliard IoT qurilmasi ishlay boshlaydi.

Artificial Intelligence (AI) va *Machine Learning (ML)* terminlari ham logistikada yangi ma'no kasb etmoqda. *Predictive analytics* (bashoratli tahlil) nafaqat ma'lumotlarni qayta ishlaydi, balki kelajakni bashorat qiladi. Amazon kompaniyasi *anticipatory shipping* patentini olgan bo'lib, bu texnologiya mijoz buyurtma berishdan oldin mahsulotlarni yaqin omborlarga jo'natadi.

Smart contract (aqlli shartnoma) atamasi ham logistika sohasida yangi pragmatik funksiyalar bilan boyitilmoqda. *Ethereum blockchain*da ishlaydigan aqlli shartnomalar yuk yetib kelganida avtomatik to'lov qiladi. Maersk kompaniyasining TradeLens platformasi IBM bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va 150 dan ortiq port va terminallarni birlashtirgan.

Logistika terminlarining lingvopragmatik xususiyatlari ularning shunchaki nomlash vositasi emasligini ko'rsatadi. Ular zamonaviy global iqtisodiyotning harakatlanuvchi kuchi bo'lib, biznes jarayonlarini tartibga soluvchi, huquqiy majburiyatlarni belgilovchi va iqtisodiy aloqalarni shakllantiruvchi kuchli vositalardir.

Pragmatik kontekstda bu terminlar informativ, direktiv, kommissiv, ekspressiv va deklarativ funksiyalarni bajarib, har bir nutqiy holatga mos ravishda ta'sir ko'rsatadi. Korpus lingvistikasi usullari bilan o'tkazilgan tahlillar terminlarning real qo'llanilishida sezilarli o'zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatdi.

Tillararo muloqotdagi muammolar, madaniy transformatsiya jarayonlari va tarjima qiyinchiliklari globallashuv sharoitida logistika terminlarining murakkabligini oshirmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi esa yangi terminlar va pragmatik funksiyalarni keltirib chiqarmoqda. Bu terminlarning to'g'ri tushunilishi, aniq qo'llanilishi va samarali tarjima qilinishi zamonaviy logistika sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford University Press, 1962.

2. Ballou R.H. Business Logistics/Supply Chain Management. New York: Pearson, 2004.
3. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. Pearson, 2016.
4. ICC. Incoterms® 2020 Rules. International Chamber of Commerce, 2020.
5. Chopra S., Meindl P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. 7th ed. Pearson, 2019.
6. Coyle J.J., Langley C.J., Novack R.A., Gibson B.J. Supply Chain Management: A Logistics Perspective. 11th ed.
Cengage Learning, 2017.
7. Harrison A., van Hoek R. Logistics Management and Strategy. 6th ed. Pearson, 2019.
8. Rodrigue J-P., Comtois C., Slack B. The Geography of Transport Systems. New York: Routledge, 2020.
9. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press, 1969.
10. Baker P. Sociolinguistics and Corpus Linguistics. Routledge, 2011.
11. Hugos M.H. Essentials of Supply Chain Management. 4th ed. Wiley, 2018.
12. Waters D. Global Logistics: New Directions in Supply Chain Management. 7th ed. Kogan Page, 2015.